

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING TA'LIM VA TARBIYASIDA HORIJIY DAVLATLARDAGI ILG'OR TAJRIBALARNI QIYOSIY TAHLILI

Abdulazizova Kamolaxon Abdurazzoq Qizi

*Andijon davlat pedagogika institute Maktabgacha
ta'lim fakulteti 1-kurs Magistiranti*

Annotatsiya: *Ta'lim sifatini boshqarish va nazorat qilish, uzluksiz ta'lim tizimini to'la boshqarish, tizimini shakilantirish hamda tadbiiq qilish – davlat ta'lim siyosati, hozirgi zamon talabi ustuvor yo'nalishlaridan bir sifatida etirif etilmoqda. Uzluksiz ta'limning poydevori bolgan boshlag'ich tizim bu maktabgacha ta'lim tizimi hisoblanadi shunday ekan ta'lim sohasini rivojlatisihni maktabgacha ta'limdan boshlashimiz o'rinlidir. Shu maqsadda o'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirishda, bu boradagi xorijning ilg'or tajribalaridan foydalangan holda ta'limning zamonaviy usulalarini keng tadbiiq etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqola maktabgacha ta'lim va tarbiyaning chet el davlatlaridagi ilg'or tajribalar qiyosiy tahlili asosida o'rganilgan. Hamda maktabgacha ta'lim sohamizda amalga oshirilayotgan islohatlar ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalar davlatni rivojlanitishni taminlashdagi o'rni va ahamyati haqida so'z yuritilgan.*

Kalit sozlar: *Maktabgacha ta'lim, xususiy, pedagogika, metod, tarbiya, ta'lim, davlat, tarbiyachi.*

Аннотация: *Управление и контроль качества образования, полное управление системой непрерывного образования, формирование и реализация системы признаны одним из приоритетов государственной образовательной политики, востребованным сегодня. Дошкольное образование является начальной системой, которая является основой непрерывного образования, поэтому развитие сферы образования целесообразно начинать с дошкольного образования. Желательно широко применять современные методы обучения с использованием опыта детей. Обсуждалась роль и значение этого опыта в обеспечении развития государства.*

Ключевые слова: *Дошкольное образование, частное, педагогика, метод, обучение, воспитание, государство, педагог.*

Abstract: *Management and control of the quality of education, full management of the continuous education system, shaping and implementation of the system are recognized as one of the priority directions of the state education policy, the demand of the present time. Pre-school education is the primary system that is the foundation of continuous education, so it is appropriate to start the development of the education sector from pre-school education. It is desirable to widely apply modern methods of education using the experiences of the children. The role and significance of these experiences in ensuring the development of the state was discussed.*

Key words: *Pre-school education, private, pedagogy, method, training, education, state, teacher.*

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar ,innovatsion texnologiyalar pedagogikalar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'lashga bo'lgan qiziqish hamda e'tbor kundan kunga kuchayib bormoqda bunday bo'lishini sababalaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy talim tizimida o'quvchilar tayyor bilimni o'rganishgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egalloyotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlari, mustaqil o'rganib taxlil qilishlari xato xullosani ham o'zlari keltirib chiqarishlari o'rgatiladi.Albatta, bunday ta'lim tizimini yanada shakilantirish unchun horijiy ilg'or tajrilarni qo'lashga suyanamiz. Ko'p yillik ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsadadiki bola umri davomida oladigan bilimni 70 foizini maktabgacha ta'lim yoshida egalaydi.Demak bola ma'nan yetuk jismonan sog'lom, har tomonlama mukamal inson bolib yetishishda maktabgacha ta'lim va tarbiyani muhim o'rin egalyadi. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish borasida bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.Davlatimiz bolalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari qamrovi yilldan yillga o'sib bormoqda.Bu ko'rsatkich 2016-yil 27,7,foizni egalagan bo'lsa 2020-yilga kelib 60 foizni 2023-yilga kelib esa bu foiz 74.4 foizni tashkil etmoqda jumladan 6 yoshli bolalar qamrovi esa 92 foizni ko'rsatmoqda. Bu raqamlar oddiy sonlar emas balki maktabgacha ta'lim tizimiga bo'layotgan etbor va islohotlarning dalilidir.

O'zbekiston respublikasi prizdenti Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim sohasiga alohida etbor qaratdi << Bu borada, avvalambor,yoshlar va bolalarga etbor va amaliy g'amhorlik ko'rsatish , ularning jismoniy va manaviy barkamol qilib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz.Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularni o'zligini to'la nomoyon etishga mustahkam zamin yaratyapmiz.Zero,bu ezgu maqsadimiz yo'lida sariflarga inestitsiyalarimiz ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q>> degan so'zlari ham buning isbotidir.Maktabgacha ta'lim tizimni yanada takomillashtirish maktabgacha ta'lim tizimni tarmoqlarini yanada kengaytirish ,yosh avlodni har tomonlama ta'limiy ,tarbiyaviy,estetik,jismonan hamda intellektual jihatdan rivojlanishlari uchun yetarli shat-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prizdendi Shavkat Mirziyoyev 2016-yil 29-sentabrdagi PQ-2707-sonli qarori qabul qilindi Qaroriga muofiq qator qator vazifalar belgilab berildi. Hatoki bu islohat yo'lida xorij mamlakatlarining maktabgacha ta'lim izimini chuqur o'rganib amalda mamlakatimizda joriy etish hamda hamkorlikda ishlash muhim hamda dorzab vazifalar ekanligi takidlandi. Bu albatda yosh avlodni ta'lim tarbiyasi uchun judda muhim. Xorijiy mamlakatlarni to'liq o'rganib amalda joriy etish albatda yangi innovatsiya va ilg'or tajribalarni kirib kelishiga sabab bo'ladi. Bu bo'yicha prizdentimiz halqaro hamkorlik sohalarini kengaytirish bo'yicha muhim tashabuslarni ilgari surdi.Prizdendimiz judda ko'p rivojlangan mamlakatlarda bo'lib maktabgacha ta'lim tizimini rivojlatirish bo'yicha fikr alamshib, ular bilan hamkorlik ishlarini olib bormoqda.mislol uchun Prizdentimiz Koreya respublikasiga tashrifi doirasida Maktabgacha ta'lim vaziri tomonidan 20 yaqin uchrashuvlar, tajriba almashinuvi

bo'ldi. O'zbekistonda eksperimental bog'chalar ochish, birgalikda kadrlar tayorlash va ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyani o'rganib chiqish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyani davlat ta'lim standartlariga ko'ra maktabgacha ta'lim – maktabgacha yoshdagi bolalarni qiziqishi, iqditori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari hisobga oligan holda maktabgacha yoshdagi bolalari qabul yoshlari belgilanadi. Bu turli davlatlarda turlicha bo'lib O'zbekistonda 3-yosh Germaniyada 4-oyli, Yaponiyada 3-yosh, Xitoyda 3 oylik Koreyada 3-oylik. Germaniyada ota onalar bolalarini bog'chaga 4-oylikdan berishda majbur boladilar. Yaponiyada buning aksi bo'lib. Ular bola parvarishida onaning o'rnini alohida deb hisoblashadi. Bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotiga 3-yoshida keladilar bu yoshgacha bolgan davrda onalari qamrovida boladi. Talim va tarbiya berish Yaponiyada oiladan boshlanib onalar har oyda 2 yoki 3 tadan bolalari uchun ertak kitob sotib olishib mutola qilib berishadi. Majburiy ta'lim tizimi ham bizning talim tizimidan farq qiladi yevropada bolalar majburiy ta'limga ertaroq jalib qilinadi. O'zbekistonda 6-7 yosh Yaponiyada 5-6 yosh Xitoyda 5-6 yosh Germaniya 5-6 yosh.

Germaniyada bolalar bog'chalari bir necha turlari mavjud. Waldkindergarten – (nemischadan olingan bo'lib o'rmon bolalari) demakdir bunda bog'chalar o'rmonda joylashgan bo'ladi, Bolalar doimo ochiq hovoda sayl qilib turli xil mashg'ulotlar bilan shug'ullanadilar, daraxtlar boshqa o'simliklarni o'rganadilar, tabiiy materiyallardan turli xil narsalar yasaydi, daraxtlar va osimliklarni o'rganadi. Bu orqali ular bolalarga tabiatni sevishni o'rgatadilar. Bauernhofkindergarten (nemischada (dexqon hovlisi) demakdir. bunda bolalar fermer hojaligi dexqon hojaligida yaqin joyda joylashgan boladilar. Savzabotlar mevalar yetishtish, o'stirish haqida bilim va malakani o'rganadilar.

Freinet-kindergarten. Bunday bog'chada bolalar o'zlari nimani xoxlashsa shuni bajaradi o'zlari xoxlagan payitda uxlaydilar. Bolalarni koproq ijod qilish syujetli roli o'yinlar muhim ahamiyat kasib etadi. Intergratsion bolalar bog'chasi-bunday turdagi MTM larda sog'lom bolalar bilan birgalikda jismonan va ruhan nosog'lom bolalar birgalikda tarbiyalanadilar. buday bog'chalarda bolalar tenglik o'zaro hurmat kabi fazilat o'rgatiladi. Germaniyada boshqa davlatlarga qaraganda imkoniyati cheklangan shaxslar o'zlarini ancha erkin xis qiladilar. Internatsional bog'cha-bunday bog'cha emigrantlar uchun ochilgan bolib. Boshqa davlat fuqorolari ham bolalari bog'chaga bemalol bera olishlari mumkin. Bog'chada bolalarga o'z onatiliida so'zlashuvchi tarbiyachilar shuningdek nemis tilida ham so'zlashuvchi tarbiyachilar mashg'ulot o'tadilar. Bolalar bunda ham o'z onatili ham nemis tilini o'rganishga imkoniyati bo'ladi. Koreya maktabgacha ta'lim tizimi bu tizimdan farq qiladi. Koreyada bog'chalarning ikki turi bo'lib: davlat va uy bog'chalari. Ushbu ikkala bog'chalar o'rtasidagi farq u qardar katta emas. Xususiy bog'chalar ochishni istagan kishilar bu bog'chani o'z uylarida tashkil etishlari mumkin. Bu turdagi bog'chalarning ochilishining sharti ular davlat bog'chalari kabi barcha standartlarga ega bo'lishi lozim. Bog'chalarda

bolalarni tarbiyalash soatlari 9.00 dan 17.00 ga qadar davom etadi. Ammo ota-onalar ishlasa, shuningdek, bolalarga qarovchi shaxs bo'lmasa, ertalab 8.00 dan bog'cha bolalarni qabul qilib oladi. Kechqurun bolalarni olib ketish ham eng uzog'i 9.30.20.00 gacha cho'zilishi mumkin. Ammo standart vaqt 17.00 bo'lgani uchun qo'shimcha vaqtlarga haq to'lanadi. Masalan 1 soat kechikkanlar uchun 3 dollar to'lov qilinadi. Davlat bo'chalarida ham uy bo'g'chalarida ham to'lovlar bolalarning yoshiga qarab belgilanadi. Bolalarning yoshi kattalashib borgan sari to'lovlar ham kamayib boradi. Koreyada ota-onalar bolalarini 3-oyligidan bog'chaga berishlari mumkin. Bu yoshdagi bolalar uchun eng yuqori to'lov qilinadi. Shu jihati muhimki, Koreyada bolalar yozishni o'qishni va hisoblashni to'liq o'rganib, so'ngra maktabga chiqishadi. Koreya bog'chasidagi tarbiyachilar o'z ishining ustalari bolishadi. Ularda haftalik reja bo'lib ularni har kuni ota onalaraga jo'natib turishadi. Bundan tashqari maxsus mobil ilova ham mavjud, u farzandining ismini kiritishi bilan uning qay ahvoldaligi, nima qilayotgani sog'lig'i va bolaning bir oylik ovqati haqidagi ma'lumotni bilishi mumkin. Ushbu menyuda xalol bo'lmagan mahsulot borligini ko'rsangiz murrabiyga murojat qilib, ushbu ovqatni o'zgartirishingiz mumkin bo'ladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribari ularning davlatlarini rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Bizning davlatimizda ham uzlukliz ta'limning poydevori bo'lgan maktabgacha ta'lim tizmini rivojlantirish, bu tizimga yangidan yangi inovatsiyalar kirgazish o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama ma'nan, jismonan, aqlan yetuk barkamol qilib tarbiyalash yo'lida ulkan ishlar qilmoqda. Bu kabi ulug' vazifani basharishda albatda o'z milliyligimizdan chiqmagan holda horijiy ilg'or tajribalardan foydalanishimiz ham muhim ahamyat kasb etadi. Zero, mamlakatimiz ezgu maqsadi bo'lgan uchinchi Renesans barpo etishni rejalashtirgan. Anashunday esgu maqsadlarni esa allbata bugungi kunda voyaga yetayotgan yosh avlodimiz ammalga oshiradi. Maktabgacha ta'lim sohasi esa shu avlod ta'limining birinchi bo'g'ini hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rahimov Sh. The main task is to include children in education.// "Preschool Education" magazine, issue 3, 2017. pp. 2-3.
2. Kuronov M. If you say let my child be happy...: for parents. - T.: Manaviat, 2013. - 320 p.
3. <http://info.ziyonet.uz/uz/post/view/education/preschool>
4. <https://mitc.uz/uz/news/1273>
5. <http://staff.tiame.uz/storage/users/163/books/QpUkgQCvigZwqntKWxxGxarNcKKeTv4wrLiKa3zc.pdf>